

**ANDIJON DAVLAT TIBBIYOT INSTITUTI TRAVMATOLOGIYA,
ORTOPEDIYA, HDJ, NEYROXIRURGIYA
KAFEDRASI**



**Kafedra mudiri tibbiyot fanlari
doktori, professor**

Xudoyberdiev Qobiljon Tursunovich

Ish vaqti: 8.00 – 15.00.

Tel: + 99890-254-36-35

E-mail: travmaadi@mail.ru

**ANDIJON DAVLAT TIBBIYOT INSTITUTI TRAVMATOLOGIYA,
ORTOPEDIYA, HDJ, NEYROXIRURGIYA
KAFEDRASINING TARIXI VA FAOLIYATI**

ADTI travmatologiya, ortopediya, va HDJ kafedrası 1967 -yili hospital xirurgiya kafedrasining dotsentlik kursida, sobiq sovet ittifoqi sog'liqni saqlash vazirligining buyrug'iga asosan mustaqil kafedra bo'lib tashkil topgan.

Kafedraga t.f.n., dotsent M.D.Dustmurodov mudirlik qilgan M.D.Dustmurodov professor G.S.Yumashev rahbarligi ostida 1974 -yili "Ko'krak umurtqalarini osteoxondrozi (klinikasi, diagnostikasi va davolash usullari) mavzusida doktorlik dissertasiyasini yoqlagan.

Kafedraning moddiy texnik bazasini yaratish va malakali kadrlar bilan to'ldirishga alohida e'tibor berilgan. Institutimizning marhum otaxon rektori, professor Yu.O.Otabekovning tashabbusi bilan ADTI travmatologiya kafedrası I.M.Sechenov nomidagi 1-MMIning travmatologiya kafedrası bilan ilmiy izlanishlar bo'yicha uzviy bog'lanib, otaliq kafedra hisoblangan va bu bog'lanish o'z ahamiyatini hozirgi kunda ham saqlab qolgan.

1968 -yildan boshlab kafedra malakali ilmiy kadrlar bilan to'la boshladi, shular jumlasidan tibbiyot fanlari nomzodlari: X.T.Tuxtasinov, G.I.Ibroximov. Shu -yillari viloyat klinik shifoxonasidagi 40 ta o'rinli travmatologiya bo'limi kafedra bazasi hisoblanar edi. Keyinchalik esa travmatologiya bo'limi 50 ta o'ringa kengaydi va yangi 30 ta o'rinli neyroxirurgiya bo'limi tashkil qilindi.

1968 -yili 1 noyabridan boshlab travmatolog va neyroxirurg mutaxassislarining tungi navbatchiligi tashkil etilgan.

1974-1975 -yillari kafedraning ilmiy rivojlanishi kuchayib, ilmiy mahsulot sifatida nomzodlik dissertasiyalari muvaffaqiyatli yoqlanadi. Avval M.X.Xasanov so'ngra

G.I.Ibroximov, N.M.Kurbanov, keyinchalik bu xodimlar kafedraning dotsenti etib saylandilar.

Shu -yillari kafedraning assistentlik lavozimlariga E.I.Alimov, K.M.Maxmudova, B.F.Sharipov, M.A.Fedoseeva, J.T.Tuxtayevlar saylandilar. 1980-1984 -yillari kafedrani t.f.d. professor M.A.Fedoseeva boshqargan. M.A.Fedoseeva 1980 -yili professor G.S.Yumashev rahbarligida doktorlik dissertasiyasini yoqlagan.

1980-1990 -yillar orasida kafedra ilmiy hayotida 3 ta doktorlik dissertasiyalari yoqlagan 1984 -yili N.M.Kurbanov "Umurtqa pog'onasini asoratli sinishlarni jrahbarlik usuli bilan davolash" mavzusida doktorlik dissertasiyasini yoqlagan. Ilmiy rahbari-professor G.S.Yumashev. 1989 -yili R.Yu.Osmanov - "Chaqaloqlarda chanoq bo'gimi chiqiqlarni davolashni patogenetik asoslash" mavzusida doktorlik dissertasiyasini yoqlagan.

Kafedramiz dotsenti X.T.Tuxtayev institut jamoat ishlarida ko'p -yillar faol ishtirok etdilar va davolash fakultetining dekan muovini lavozimida ishlagan.

1985 - 2002 -yilgacha tibbiyot fanlari doktori professor N.M.Kurbanov kafedra mudiri lavozimida rahbarlik qilib kelgan.

N.M.Kurbanov tashabbusi bilan 1983 -yili Andijon davlat tibbiyot instituti kliniklari qoshida rejali neyrojrahbarlik bo'limi tashkil qilindi va hozirda faoliyat ko'rsatmoqda. N.M.Kurbanov rahbarligida Respublikamizda birinchilardan bo'lib aloxida vertebrologiya faniga asos solindi va uni rivojlanishiga alohida e'tibor berilmoqda.

Professor N.M.Kurbanov rahbarligida 7 ta fan nomzodlari: K.T.Xudoyberdiyev, N.Yu.Mirzayuldashev, O.K.Abduxalikov, B.M.Isakov, A.G.Karimov, B.N.Davlatovlar va 3 ta fan doktori tayyorlandi: K.T.Xudoyberdiyev (himoya sanasi - 1999) O.K.Abduxalikov, (himoya sanasi - 1999) J.M.Mamanazarovlar (himoya sanasi - 2000) hozirda 2 ta xodimimiz: dotsent J.T.Tuxtayev., t.f.n. K.A.Kuldashev doktorlik dissertasiyasi va 7 ta xodimimiz nomzodlik dissertasiyalari ustida ishlamoqdalar. Professor N.M.Kurbanov rahbarligida Umurtqa pog'onasi va orqa miya patologiyasiga bag'ishlangan 3 ta monografiya nashrdan chiqarilib, keng tibbiyot xodimlariga taqdim etilgan.

1989-va 1999 -yillarda kafedramiz tashabbusi va faol ishtirokida Respublikamiz va xorijiy mutaxassislar ishtirokida "Artrologiya va vertebrologiyaning dolzarb muammolari" mavzusida ilmiy - amaliy anjumanlar o'tkazildi.

Professor N.M.Kurbanov 1997 -yil iyul oyida Gollandiyaning Amsterdam shaxrida bo'lib o'tgan Butunjaxon neyroxirurglarning XI - kongressida va Germaniyaning Gannover shaxrida bo'lib o'tgan (1998 y.) Yevropa neyroxirurglarning konferensiyasida ishtirok etib, O'zbekiston ilm fanining bayrog'ini baland ko'tardi.

Andijon davlat tibbiyot institutining travmatologiya, ortopediya, HDJ, neyroxirurgiya kafedrasining respublikamizdagi alohida yetakchi o'rnini xisobga olinib, umurtqa pog'onasi kasalliklari, shikastlanishi va ularning asoratlari bilan og'rigan bemorlarga malakali yordam ko'rsatishni takomillashtirish, yangi davolash texnologiyalarini ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni Saqlash Vazirligining 02.05.2000 y. 226 sonli buyrug'iga asosan Respublika Vertebrologiya Ilmiy Markazi tashkil topgan.

2002-yildan boshlab, hozirga qadar kafedraga t.f.d. professor K.T.Xudoyberdiyev rahbarlik qilib kelmoqda.

KAFEDRA JAMOASI
Kafedra professor-o'qituvchilarining ro'yxati

№	F.I.Sh.	Ilmiy darajasi va lavozimi	Telefon raqami va elektron manzili
1	Xudayberdiyev Qobiljon Tursunovich	Kafedra mudiri,t.f.d, professor	+998902543635 travmaadi@mail.ru
2	To'htayev Jo'rayov To'htayevich	t.f.n, dotsent	+998905441213 jtuhtaevtravma@mail.ru
3	Mirzayuldashev No'mon Yuldashevich	t.f.n, dotsent	+998902590372 mirzayuldashevneuro@mail.ru
4	Botirov Nozimjon To'rahonovich	katta o'qituvchi	+998903880380 ntbotirovtravma@mail.ru
5	Mamajonov Bahodir Solijonovich	katta o'qituvchi	+998936303200
6	Isakov Bahtiyor Mo'ydinovich	t.f.n, assistent	+998937800861 bmisakovneuro@mail.ru
7	Fozilov Shuhratilla Qudratovich	t.f.n, assistent	+998914866400
8	Mamadjanov Komiljon Hasanboyevich	assistent	+998914810003 khmamadajanovtravma@mail.ru
8	Djalilov Farhodjon Rustamjonovich	assistent	+998902532270 frdjalilovtravma@mail.ru
10	Holmatov Azizjon Azimjonovich	assistent	+998901730300
11	Qodirov Azizibek Abduvohitovich	assistent	+998902164240
12	Mamadaliyev Abbosbek Bahtiyarovich	assistent	+998934187555 absmamadaliyev@mail.ru
13	Tursunov Qudratbek Qobiljonovich	assistent	+998912880015

Hozirgi vaqtda kafedra assistentlari Mamajonov B.S. va Qodirov A.A. nomzodlik dissertatsiyalari mavzulari OAKning koordinatsion kengashida tasdiqlandi hamda izlanishlar nihoyalash arafasida. Kafedra xodimlari travmatologiya va neyrohirurgiya yo'nalislari bo'yicha ko'plab patent, jurnal maqola, tezis, amaliyotga tadbirlarga mualliflik qilgan.

Kafedrada o'qitilayotgan fanlar

Travmatologiya va ortopediya - to'rtinchi kurs davolash va kasbiy ta'lim fakulteti talabalari

Neyrojarrohlik - beshinchi kurs davolash va kasbiy ta'lim fakulteti talabalari

Harbiy dala jarrohligi – oltinchi kurs davolash va kasbiy ta'lim fakulteti talabalari

Talofatlar tibbiyoti – oltinchi kurs davolash va kasbiy ta'lim fakulteti talabalari